



## MINTAQANING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MAXALLIY BYUDJETLARNING O'RNI

**Olimov Shohijahon Fozilxon o'g'li**

Namangan davlat universiteti  
Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8365718>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-July 2023 yil  
Ma'qullandi: 28-July 2023 yil  
Nashr qilindi: 31-July 2023 yil

### KEY WORDS

*Mahalliy byudjet, pul tizimi,  
byudjetlar mustaqilligi,  
Respublika byudjeti, viloyat  
byedjeti, tuman va shaxarlar  
byudjeti, dotatsiya..*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada mintaqada moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda mahalliy byudjetlarning o'rnini hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tomonlari o'rganilgan.*

Mahalliy byudjetlar byudjet tizimida asosiy o'rinni egallaydi. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining asosiy qismi sifatida o'zida 14 ta mustaqil byudjetni mujassamlashtiradi.

Mahalliy byudjet – byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

### Asosiy qism.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining tarkibiy qismi sifatida quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- qonunchilik bazasini unifikatsiyalash;
- pul tizimi qurilishi, byudjetni tasniflash tizimi, byudjetning hisob-kitob tizimi, byudjet jarayoni birligi;
- byudjet qurilishining ma'muriy - hududiy bo'linishiga mosligi;
- davlat byudjetini tashkil qiluvchi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi;
- davlat daromadlar va xarajatlarining tengligi (yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan byudjet taqchilligini hisobga olgan holda);
- davlat daromadlar va xarajatlarining aniq manbalari va yo'nalishlarini rejalashtirish;
- davlat byudjetining xarajatlarini byudjet tizimining qonuniga ko'ra amalga oshirish;
- kapital va joriy xarajatlarni bir-biridan ajratish;
- byudjetlar mustaqilligi;
- to'g'riligi;

- hisobotlarning byudjet ijrosi to'g'ri bajarilishi ustidan nazorat.

Byudjet qonunchiligi byudjet tizimining har qaysi bo'g'ini tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlar tizimini oldindan aniq belgilaydi. Respublika byudjeti ixtiyorida umumdavlat ahamiyatidagi ehtiyojlarni va u yoki bu mahalliy byudjet imkoniyati doirasida bo'lmagan xarajatlarni moliyalashtirish biriktirilgan.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar davlat byudjetining tarkibi sifatida mahalliy hokimiyat organlari boshqaruv vositalari bo'ladi. Shu bugungi kungacha mahalliy byudjetlarni tashkil etish, ularni boshqarish 1993 yilda joriy qilingan «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat organlari to'g'risida»gi qonunga asoslanar edi. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonun loyihasi byudjet mustaqilligiga amal qiladi. Byudjet mustaqilligi tamoyili, – tumanning vakolatli organlari byudjet jarayonini mustaqil amalga oshirishi qonuniy yul bilan barcha darajadagi byudjetlarga daromadlarni biriktirish vakolatli organlar tomonidan mahalliy soliqlar va yig'implarning stavkalarini o'zgartirish tushuniladi.

Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning byudjet siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir. Bu borada Prezidentimizning fikr - mulohazalari diqqatga sazovordir: «Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy byudjetlarni mustahkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligi va bu boradagi mas'uliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustahkamlaydi»[1].

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning fikr – mulohazalaridan va byudjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarning, hukumatning ijtimoiy – iqtisodiy siyosatini amalga oshirishdagi mavqei yanada oshishiga sabab bo'layotgan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) mahalliy moliya organlarining byudjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida byudjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va byudjetga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga va rag'batlantirishni ta'minlash zarurati.

b) aholini ijtimoiy himoya qilish masalasining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yo'nalishi sifatida tan olindi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyillaridan biri – aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shuning uchun xam aholining ham ta'minlangan qatlamlariga to'lanayotgan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib bormoqda.

v) mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladigan tadbirlarning oshib borishi, masalan, 1994 yildan boshlab mahalliy byudjetlar tomonidan oldingi yillarda Respublika byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan kadrlar tayyorlash, ya'ni o'rta maxsus o'quv yurtlari xarajatlarini moliyalashtirishni amalga oshirishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mahalliy byudjetlar orqali halq ta'limi, sog'liqni saqlash va madaniyat muassasalari moliyalashtirib boriladi. Mahalliy byudjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Qariyb aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining 100%i mahalliy byudjetlar tomonidan

moliyalashtiriladi.

Moliya, byudjet-soliq siyosati, uning turli siyosiy-iqtisodiy ustqurmalar sharoitida amal qilish hususiyatlari va qonuniyatlari to'g'risida ilmiy izlanishlar, jahonning eng yetakchi va iqtisodchi omillarining bir necha yillar va asrlar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarining mavzusi bo'lib kelgan.

Moliya tizimining, byudjet tizimining mohiyati, vazifalari va muammolarini taniqli iqtisodchi olimlardan U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, J.Keyns, S.Fisher, K.Makkonell, Stenli L.Bryu, A.Laffer, A.SHemeret, V.Panskov, B.Sabanti, D.CHernik, B.Boldo'rev, G.Polyak, V.Romanovskiy, T.Guyda va boshqalarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodchi-olimlaridan I.Karimov, M.SHarifxo'jaev, S.G'ulomov, E.Akramov, T.Malikov, O.Olimjonov, O.Namozov, X.Sobirov, K.Yaxyoev, E.Gadoev, A.O'lmasov, O.Jumanov, N.Haydarov, J.Qo'chqarovlar turli masalalarni, moliya-byudjet tizimining amaliy va nazariy tadqiq etishgan.

Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati, uni taqsimlash (qayta taqsimlash) va nazorat funksiyalari orqali amalga oshadi. Birinchi vazifasi orqali hududiy bo'linmalar ehtiyojlarini qondirish maqsadida pul mablag'larini davlat qo'lida to'plash va ishlatish amalga oshsa, ikkinchi vazifasi moliyaviy resurslar qay darajada to'la va o'z vaqtida davlat ihtiyoriga kelib tushayotganligi, byudjet mablag'larini taqsimlashdagi munosiblik haqiqatda qanday, ulardan foydalanish samarasi qay darajada ekanligini bilish imkonini beradi. Mahalliy byudjetning vazifalari iqtisodiy kategoriya sifatida haqqoniydir. Ammo byudjetga tegishli hususiyatlar, uni taqsimot va nazorat quroli sifatida ishlatish faqat jamiyat taraqqiyoti jarayonida, ya'ni davlat tomonidan vujudga keltirilgan byudjet mexanizmida o'z aksini topgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Iqtisodiy mohiyatga ko'ra mahalliy byudjetlar - bu hududlarda halq xo'jaligini, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni, davlat boshqaruvini moliyalashtirishga qaratilgan byudjet jamg'armasini tashkil etish va ishlatish munosabati bilan milliy daromadni qayta taqsimlash bo'yicha davlatning huquqiy va jismoniy shaxslar bilan vujudga keladigan pul munosabatlaridir. Mahalliy byudjet sababli hududlarda moliyaviy resurslarni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi jabhalariga jalb qilish imkoniga ega bo'linadi.

Mahalliy byudjetlar bevosita moliya tizimi bo'g'imlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar. Jumladan, hukumat tomonidan chiqariladigan qonunlar, qarorlar asosida mahalliy byudjetlarning daromadlar qismi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat tashkilotlari jismoniy shaxslar daromadidan soliq olish yo'li to'ldirib boriladi. Bunda bevosita soliq xizmati organlari, bank muassasalari faol ishtirok etadilar. Bundan tashqari mahalliy byudjetlar byudjet muassasalari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga mablag' yuborish bilan ular faoliyatini tashkil etish va daromadini oshirishda bevosita ishtirok etadilar.

Mahalliy byudjetlar yordamida hududlardagi ijtimoiy daromadlar, YaIM korxonalar va tashkilotlar daromadiga soliq va tushumlar solish yo'li bilan taqsimlanadi va ularning ma'lum qismi mahalliy byudjetlar ihtiyorida jamlanadi. Jamlangan mablag'lar amaldagi hukumat o'z siyosatini amalga oshirishi uchun mahalliy byudjetlar tomonidan hududlarni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlantirishga sarflanadi yoki YaIM shu yo'l bilan qayta taqsimlanadi.

Davlatning mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi muvofiqlikni ta'minlash zarurligini o'rganishda mahalliy iqtisodiy siyosatni faol amalga oshirish uchun yetarli hajmda mablag'larni jamlash imkonini beruvchi mahalliy byudjet zvenolarini isloh qilishga

kontseptual yondashuvlar muhim masaladir. Bu masalani hal qilish uchun quyidagilarni o'rganish va muhim hulosalarni chiqarish lozim.

1. Yangi byudjet qurilishi sharoitlarida mahalliy iqtisodiy siyosatning soliq-byudjet vositalarini shakllantirish asoslarini va mahalliy darajadagi byudjet tafovutlarini tekislashning jahon amaliyoti tahlilini o'rganish.


2. Milliy va horijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan byudjet nazariyalarining uslubiy asoslarini o'rganish tadqiq qilinadigan uslublar sifatida quyidagilardan foydalanish mumkinligini ko'rsatdi:

– byudjet jarayonlarini tashkil etish muammolarini o'rganishga tizimli yondoshuv;

– byudjet-soliq siyosati orqali tartiblashni tashkil etish sohasidagi nazariy, uslubiy va amaliy ishlanmalarni ilmiy tahlil qilish, hulosalar chiqarish (1-chizma).

Har qanday jamiyat tizimida ham jamiyat rivojlanishini tartiblashning o'xshash masalalari, ammo turli usullari uchrab turadi. Mustaqillikka qadar iqtisodiyotda buning uchun to'g'ridan-to'g'ri direktiv boshqaruv usullaridan foydalanilgan. Hozirgi kunda mamlakatning mustaqil davlat qurish amaliyotiga o'tish orqali boshqaruvning ikki bosqichli markazlashmagan tizimi shakllantirilmoqda. Vakolatlarni «markaz» va mahalliy boshqaruv organlari orasida qayta taqsimlash yuz bermoqda, ya'ni bu bilan respublika va mahalliy hudud tashkilotlarining barcha darajalarida bu taqsimlashni amalga oshirishga mos vositalar shakllantirishga iqtisodiy siyosat buysundirilgan.

INNOVATIVE  
ACADEMY



**1-chizma.**

Bozor munosabatlarini o'rganish va byudjet tizimini isloh qilish sharoitida O'zbekiston Respublikasi hududlarida mahalliy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish byudjetlararo munosabatlarni shakllantirish va soliq tizimi transformatsiyasiga printsiplial yangi fundamental yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Jahon tajribasida mahalliy iqtisodiy siyosatning uch turi ajratib ko'rsatiladi: birinchisi, hududlar rivojlanishini maqsad qilib olgan; ikkinchisi, mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishga yo'naltirilgan; uchinchisi, aholi bandligi va hududlar iqtisodiy rivojlanishining darajasi va maqsadlariga bog'liqdir. Asosiy o'rinda hududiy rivojlanishning quyidagi maqsadlari guruhini (bir qancha tashkil qiluvchilari bilan) keltirishimiz mumkin:

- strategik-amaliy hususiyat (depressiv holatdan chiqish, xo'jalik sohalari transformatsiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyatga omilkor yondoshuv va boshqalar);
- strategik-barqarorlashuv hususiyati (jarayonlar birligini saqlash, iqtisodiy hududlarda evolyutsion islohotlar o'tkazish va boshqalar);
- mahalliy boshqaruvda joylashgan alohida tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash; joriy (alohida xizmat, hududiy xo'jalik tizimi, uning ob'ektlarini) rivojlantirish bo'yicha aniq masalalar.

Mahalliy byudjetlar ishlab chiqarish aniq natijalarining aholiga yetib borish bosh kanallaridan biridir. Ular orqali umumiy iste'mol fondi aholining alohida guruhlariga o'rtasida taqsimlanadi. Bu byudjetlardan, ma'lum o'lchamlarda ishlab chiqarish soha tarmoqlari, birinchi navbatda mahalliy va oziq-ovqat sanoati, maishiy (kommunal) xo'jalik, aholi hayot faoliyatini ta'minlashning muhim komponenti bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar xajmi moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar rivoji jarayonida hududlarni boshqarish tizimining markazga tamoman bog'liqligini keskin cheklash zaruriyati vujudga keldi. Shunday sharoitda yirik shaharlar va tumanlar o'zlarining mustaqil iqtisodiy siyosatga tayyorgarlik darajasiga qaramasdan, bunday siyosatni shakllantirish va uning natijasi uchun javobgarlikni o'ziga olish majbur bo'ladilar. Vertikal jihatdan davlat boshqaruvi qonunan mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi maqomini oluvchi mahalliy boshqaruv darajasiga bo'linadi. Bu maqomni rasmiylashtirishi mahalliy homiyatlarning hududiy va mahalliy rivojlanishi uchun faol mahalliy iqtisodiy siyosatni shakllantirishning haqiqiy imkoniyatlaridan ancha orqada qolmoqda.

Mahalliy iqtisodiy siyosatga bo'lgan zaruriyat aniq lokal birlashmalar a'zolari urinishlari jamiyatda bozor iqtisodiyotini tartiblash talabiga, aholi turmush darajasining yuqori standartlarini ta'minlay oladigan, hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va tabiiy resurs potentsialining barqaror ishlatilishini ta'minlash uchun iqtisodiy hayotning hududiy tashkilotlariga bo'lgan talabga asoslanadi.

Ushbu muammoni o'rganishning asosiy maqsadi bozor sharoitida ilmiy asoslangan fundamental izlanishlarni o'tkazish va davlatning moliyaviy resurslaridan foydalanilgan holda barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yaratishdan iboratdir.

Mamalakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va hududiy muammolarni hal etishda mahalliy byudjetlarning roli shunda namoyon bo'ladiki, u yoki bu hudud moliyaviy resurslari balansida mahalliy byudjetlar daromadlari va harajatlari markaziy o'rinni egallaydi. Hududiy iqtisodiyot muammolari islohotlarining hozirgi bosqichida mahalliy byudjetlar oldiga yangi muammolarni qo'ymokda:

- byudjet mablag'larining xududlar buyicha taksimotida xarajatlar ko'lami hamda mablag'larning cheklanganligi oqibatida byudjet resurslariga bo'lgan ehtiyojni qondira olmaslik muammosi yechimini topishni;
- byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning mustaqilligi haqida va uning moliyaviy-iqtisodiy zaminlari haqida tortishuvlarning ilmiy asoslanishini hamda bu boradagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishni;
- rivojlangan mamalkatlar byudjet amaliyotida keng qo'llanilayotgan byudjet resurslarini byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash jarayonidagi tegishli asoslar va mezonlarga amal qilish muammosi va ularni hal qilinishi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilganlarni inobatga olgan holda, mahalliy byudjetlarning daromadlar balansini mustahkamlash yo'llarini aytib o'tish mumkin.

- mahalliy byudjetlar uchun subvensiyalar faqat ustivor yo'nalishlarga qaratilishi lozim va ushbu mablag'larni maqsadli sarflashni nazoratga olish;
- mahalliy byudjet daromadlarini oshirishda korxonalar va tashkilotlarning soliq yukini kamaytirish bilan ularning ishlab chiqarish faoliyatini tiklash va moliyaviy faoliyatini

mustahkamlash;

- mahalliy organlar tomonidan mahalliy soliqlarni joriy etishdagi huquqlaridan to'liq foydalanish;
- daromad rejalarning bajarilishiga qarab rejadan ortiq olingan daromadlardan mahalliy byudjet qismiga hisoblanadigan foiz stavkalari normativlarini ko'paytirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni rejalashtirish va ijro etishdagi huquqlarini kengaytirish lozim. Bizning fikrimizcha, respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning o'zaro aloqalarini qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995. - 208-b.

